

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTUI



"TASDIQLAYMAN"

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori

O.S.H.Bazarov
2024 yil

Ro'yxatga olindi № 25/0406
19 yun 2024 yil

INFRATUZILMA IQTISODIYOTI
fanining

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

Ta'lim sohasi: 310000 - Ijtimoiy xulq atvorga mansub fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

QARSHI - 2024 yil

Fam/modul kodi ECONINF6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 8	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov fani	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 74	Haftadagi dars soatlari 5
Fanning nomi Infratuzilma iqtisodiyoti	Mustaqil ta'lim (soat) 106	Jami yuklama (soat) 180	
1.			
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarga infratuzilma tizimini boshqarishda zarur bo'lgan zamonaviy andozalarga javob beradigan nazariy-amaliy professional bilimlarni mustahkamlashga hamda shakllantirishga qaratilgan.</p> <p>Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Infratuzilma iqtisodiyoti" fani muhim ahamiyat kasb etadi.</p> <p>Bugungi kunda kuplab rivojlangan va jaxon iqtisodiyotida yetakchi urin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni suzsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat yuritayotgan quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.</p> <p>Fanning vazifalari qoyidagilardan iborat: infratuzilmaning mohiyati, tarkibi va asosiy tushunchalarini izohlash; infratuzilma iqtisodiyoti va uning tarkibiy qismlari hamda iqtisodiy negizlarini asoslash; infratuzilma xizmatlari va ularning rivojlanishini, asosiy yunalishlarni taxlil etish; infratuzilma iqtisodiyotining samaradorligi va ularning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil etish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni Infratuzilma iqtisodiyoti fanining predmeti. Infratuzilma iqtisodiyoti fanining asosiy vazifalari. Infratuzilma tushunchasi. Infratuzilma iqtisodiyoti fanining asosiy tushunchalar. Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida infratuzilmalarni shakllanishi. Infratuzilmalar rivojlanishining qonunlari va kategoriyalari. Infratuzilma iqtisodiyoti fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.</p> <p>2-mavzu. Infratuzilmaning mohiyati, tarkibi va turkumlashdirish Infratuzilmaning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Infratuzilmaning turkumlashdirilishi, uning tarkibi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi mohiyati, axamiyati va vazifalari. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi. Respublikada</p>		

infratuzilmaning tarkibiy elementlari. Infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish uchun normal shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoq ekanligi.

3-mavzu. Infratuzilmalar rivojlanishi va makroiqtisodiy o'sishning o'zaro aloqadorligi
Infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishdagi roli. Makroiqtisodiy o'sish va uning turlari. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberalashtirishda infra-tuzilmalar rivojlanishi va uning ahamiyati to'g'risida. Infratuzilmalar bilan makroiqtisodiy o'sish o'zaro aloqalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida infratuzilmani rivojlantirishning ahamiyati.

4-mavzu. Bozor infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi

Davlatning kredit tizimi, funksiyalari va uziga xos hususiyatlarini ilmiy tadqiq etish. Sug'urta faoliyatini tashkil etish va ilmiy baholash. Birjalar faoliyatini boshqarish va tahlil etish. Reklama agentliklari xizmati va ularni ilmiy tadqiq etish. Savdo vositachilik korxonalarini faoliyatini ilmiy baholash.

5-mavzu. Yoqilg'i energetika majmui va uning infratuzilma iqtisodiyotidagi roli

Iqtisodiyotni rivojlanishida yoqilg'i-energetikaning roli. Iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan ta'minlashning xozirgi holati. Elektr energiyasi ta'minoti va uni rivojlantirish yullari. Energo-resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari. Energoresurslarning turli manbalardan foydalanishni kengaytirish yo'llari.

6-mavzu. Transport tizimi va iqtisodiyotning transport infratuzilmasi
Transport infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari. Transport infratuzilmasining iqtisodiy ko'rsatkichlari. Temir yo'l transport tizimi va uning iqtisodiyotdagi roli. Shaharlarda transport infratuzilmasini takomillashtirish masalalari.

7-mavzu. Avomobil yo'li infratuzilmasi

Yo'l infratuzilmasining mohiyati va asosiy tushunchalari. Avtomobil transport tizimi. Transport va yuk tashish tizimida yul infratuzilmasining roli. Xalqaro avtomagistral va yagona milliy avtomobil transport tizimini yaratish. Milliy avtomagistral yoqasi va temir yo'llar bo'ylab infratuzilma va servis obyektlarini tashkil etish va takomillashtirish.

8-mavzu. AKT tizimi va uning rivojlanish tendensiyalari

O'zbekiston telekommunikatsiyalari tizimi. Axborot infratuzilmasining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili. Uyali aloqa infratuzilmasi. Internet xizmatlari va ma'lumotlar uzatish tarmoqlari tizimi. Respublikada AKT rivojlantirish yo'nalishlari. AKT xizmatlari foydalanish imkoniyatlari va yo'llarini kengaytirish.

9-mavzu. Infratuzilma sohasida investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi

Infratuzilma sohasiga investitsiyalarni jalb etish zarurligi va ahamiyati. Infratuzilma sohasiga sarflanayotgan investitsiyalarning manbalari va ularning sarflanish yo'nalishlari. Infratuzilma sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish. Infratuzilma sohasiga investitsiyalarni kiritish samaradorligini baholash.

10-mavzu. Rivojlangan xorijiy davlatlarning infratuzilma iqtisodiyotidagi ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish

Iqtisodiyoti barkor rivojlangan davlatlarda infratuzilmani tashkil topishi. Infratuzilma obyektlarini iqtisodiy tahlili. Xalqaro tajribalarni o'zaro almashish. Rivojlangan davlatlarning infratuzilma iqtisodiyotidagi ilg'or xorijiy tajribalari. Xorijiy mamlakatlarda infratuzilmani tashkil etish va boshqarish amaliyoti.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni
2. Infratuzilmaning mohiyati, tarkibi va turkumlashtirish
3. Infratuzilmalar rivojlanishi va makroiqtisodiy o'sishning o'zaro aloqadorligi
4. Bozor infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi
5. Yoqilg'i energetika majmui va uning infratuzilma iqtisodiyotidagi roli
6. Transport tizimi va iqtisodiyotning transport infratuzilmasi.
7. Avtomobil yo'li infratuzilmasi
8. AKT tizimi va uning rivojlanish tendensiyalari
9. Infratuzilma sohasida investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi
10. Rivojlangan xorijiy davlatlarning infratuzilma iqtisodiyotidagi ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aholi turmush darajasini yaxshilashda infratuzilma omillari.
2. "Infratuzilma iqtisodiyoti" fanining predmeti, usullari va asosiy vazifalari.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilma tizimi va uning ahamiyati
4. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonaga foydasi va uni maksimallashtirish yo'llari. "Infratuzilma iqtisodiyoti" fanining predmeti, usullari va asosiy vazifalari.
5. Infratuzilmaning mohiyati, tarkibi va turkumlashtirish.
6. Infratuzilma va makroiqtisodiy o'sish o'zaro aloqalarini ilmiy tadqiq etish

7. Respublika iqtisodiyoti infratuzilmasining tarkibiy elementlari.
8. Aholini ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish yo'llari.
9. Yoqilg'i energetika majmui va uning infratuzilma iqtisodiyotidagi roli.
10. Transport tizimi va iqtisodiyotning transport infratuzilmasi.
11. AKT tizimi va uning rivojlanish tendensiyalari.
12. Yo'li infratuzilmasi
13. Infratuzilma sohasida investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi
14. Respublikaning ijtimoiy soha tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonining tahlili.

3. V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar

Talaba bilishi kerak:

- infratuzilma mohiyati va uning turkumlanishi; bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy konsepsiyasi; O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bozor infratuzilmalari va ularning tarkibi va bosqichlari; infratuzilma iqtisodiyoti samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillarini *bilishi kerak*;
- infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishdagi roli; ilg'or chet el tajribasini bilishi va ish yuritish usullarini egallashi; korxonalar infratuzilmasi faoliyatini tahlil qilishning asosiy yunalishlari bo'yicha *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;
- infratuzilma xizmatlari va ularning rivojlanishi; milliy iqtisodiyot infratuzilma soxalarida sodir bulayotgan jarayonlar va o'zgarishlarni tahlili; infratuzilmani rivojlantirishda investitsiyaning roli; rivojlangan mamlakatlarni bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni amaliyotga qo'llash buyicha xulosa va takliflarni shakllantirish va tavsiyalar berish; ilmiy adabiyotlarni o'qitish, kiyosiy tahlil qilish va iqtisodiy statistik *materiallarni tanlash va tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar
 - real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish
 - o'qituvchilarning maslahatlari
 - mustaqil ish
 - interfaol vaziyatli topshiriqlar, keys-stadilar yechish
 - jarayonli yo'naltirilgan ta'lim
 - muhokamalarda ishtirok etish
 - mustaqil ishlarni bajarish
 - taqdimot tayyorlash
 - turli darajadagi testlarni yechish
 - esse yozish
 - kichik guruhlarda ishlash
 - individual loyihalar
 - so'rov o'tkazish
 - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
- Talabalar darslarda qatnashishdan oldin bir qator tayyorgarlik darslarini bajarishlari kerak.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

8	<p>Fan / Modul uchun mas'ul S.N.Xamrayeva – “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor M.Yu.Alimova – “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini katta o'qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar: Tursunov I.E. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrasini prof. v.b, i.f.n. Ravshanov A.D. - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini prof. v.b, i.f.n.</p>

	<p>mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Z.Ashurov., M.Tashxodjayev. Infratuzilma iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU 2015 yil, 225-b. 2. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti – O'quv qo'llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2012, 332 b. 3. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X., Qurboniyozov I.R. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2010. – 268 bet. 4. Под ред. Т.Д.Бурменко. Сфера услуг: экономика, менеджмент, маркетинг Учебное пособие. М.:КНОРУС, 2010 -424 стр. 5. Восколович.Н.А. Экономика платных услуг: учеб.пособ. М. «Экономика», 2007. -366 стр. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 7. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi”. O'zbekiston Respublikasi-ning saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantana-li marosimidagi ma'ruzasini. Xalq so'zi, 2016 yil 8-dekabr. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2. www.ziyounet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali 3. http://www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti. 4. www.UzReport.uz – UzReport agentligining axborot sayti 5. http://www.cifforum.ru – axborot texnologiyalar bo'yicha axborot sayti. 6. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi. 7. www.search.re.uz – O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi. 8. http://model-a-platform.com/digital-platform-ontology-2/- raqamli platformalar haqida ma'lumotlar sayti.
7	<p>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Fan dasturi Iqtisodiyot fakulteti (bayonoma № ___ yil) hamda institut Kengashlarida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (___ yil “ ___ ” iyundagi № ___ sonli bayonoma).</p>